Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.111

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

O‘zbek tilida ta’lim sohasi terminologiyasining struktur-semantik va kognitiv-diskursiv omillari

Go’zalxon Raxmonaliyevna Astonova*

Farg’ona davlat universiteti

✉ gozalxonastonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi ta’lim sohasi terminologiyasi va leksik birliklarining struktur-semantik, kognitiv hamda funksional-chog‘ishtirma xususiyatlari ilmiy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

ta’lim terminologiyasi, leksik-semantik tizim, konseptual maydon, kognitiv yondashuv, semantik iyerarxiya, Ta’lim konsepti, chog‘ishtirma tahlil.

DOI: 10.5281/zenodo.23277846

KIRISH

Til jamiyat hayotining ajralmas qismi, inson tafakkuri va milliy ongning asosiy ifoda etuvchi vositasi sifatida xalqning madaniy taraqqiyoti, tarixiy xotirasi hamda ijtimoiy tajribasini mujassamlashtiradi. Ayniqsa, ta’lim tizimi bilan bog‘liq leksik birliklar har bir millatning dunyoqarashi, qadriyati va ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlarini namoyon etuvchi muhim semantik qatlamni tashkil etadi. Bugungi kunda ta’lim sohasi terminologiyasini struktur va semantik jihatdan o‘rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy, psixolingvistik hamda pedagogik jihatdan ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki ta’limga oid birliklar orqali xalqning ilmga, ma’naviyatga munosabati, ijtimoiy qadriyatlar tizimi va dunyoqarash modeli namoyon bo‘ladi.[1]

O‘zbek tilshunosligida ta’lim tizimiga oid birliklarning struktur-semantik xususiyatlarini o‘rganish terminologiya, leksikologiya va semasiologiya yo‘nalishlari kesishgan nuqtada olib borilgan. Leksik-semantik tizim, ma’no strukturalari va konseptual tahlil masalalari bo‘yicha qator olimlar tadqiqotlar olib borganlar. A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, D.Jo‘raboyeva va boshqalar o‘z asarlarida o‘zbek tilining semantik tizimi, so‘z ma’nosining qatlamlari va konseptual maydon tuzilishini o‘rgangan.

Xususan, o‘zbek terminologiyasi bo‘yicha A.Hojiyevning ilmiy qarashlari esa mazkur yo‘nalish uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Olim termin va umumxalq so‘zlari o‘rtasidagi farq, terminologik aniqlik va semantik qat’iylik masalalarini yoritib, ta’limga oid birliklarning termin sifatida mustahkamlanish jarayonini izohlaydi.[2] Olim “O‘zbek tilining leksikologiyasi” asarida so‘z ma’nosining paradigmatik, sintagmatik va derivatsion aloqalarini o‘rganishning nazariy asoslarini belgilaydi.[3] U so‘zning madaniy xususiyati milliy tafakkur bilan bog‘liqligini ta’kidlaganidek, “ta’lim” so‘zi ham xalq tafakkurida ijobiy aks-sado beradi. U “ilm”, “bilim”, “tarbiya”, “ma’rifat” leksemalari bilan semantik parallel hosil qiladi, biroq ularning har biri alohida konseptual maydonni ifodalaydi. Masalan, “ilm” ko‘proq diniy-ma’naviy bilimni, “bilim” esa amaliy ko‘nikmani bildiradi; “ta’lim” esa bu ikki jarayonni birlashtiruvchi umumiy kategoriya sifatida ishlatiladi.

Shuningdek, Sh.Rahmatullayevning funksional-semantik yondashuvi ta’lim terminlarining rasmiy hujjatlar, darsliklar va ilmiy matnlardagi diskursiv vazifasini ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqotchining “Tilning semantik tuzilishi” nomli tadqiqotida ma’no shakllanish jarayonining ichki tuzilmasini ochib bergan.

N.Mahmudov va A.Nurmonov o‘zbek tilida kognitiv yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, ular tilda konseptlar, ya’ni inson ongida shakllanadigan bilim birliklari orqali milliy dunyoqarashni ifodalashini isbotlaganlar.

Z.D.Ubaydullayeva o‘z tadqiqotida o‘zbek tilidagi ta’lim sohasiga oid terminologik birliklarning semantik munosabatlarini tahlil qilib, ularning sinonimik, giperonimik va paradigmatik bog‘lanishlarini aniqlagan. Tadqiqotda “ta’lim”, “tarbiya”, “bilim”, “o‘qituvchi”, “o‘quvchi” kabi birliklarning terminologik tizim ichidagi o‘rni ochib berilib, ularning ma’no chegaralari va semantik iyerarxiyasi ilmiy asosda yoritilgan. Bu yondashuv ta’lim terminlarining faqat nominativ emas, balki tizimli-semantik birlik ekanini ko‘rsatadi.[4]

Shuningdek, M.B.Nizomova va S.M.Erkinovalarning qiyosiy tadqiqotlarida o‘zbek tilidagi ta’lim terminlari struktur jihatdan affiksatsiya, kompozitsiya va o‘zlashma modellar asosida shakllanishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotchilar “o‘qituvchi”, “o‘quvchi”, “ta’limli”, “bilimli”, “pedagogik”, “ta’limiy” kabi birliklarni morfologik tahlil qilib, o‘zak va qo‘shimchalar orqali hosil bo‘ladigan semantik qatlamlarni aniqlaganlar. Ushbu ishda ta’lim terminlarining semantik barqarorligi va funksional moslashuvchanligi, ayniqsa, ilmiy va didaktik diskursda tutgan o‘rni asoslab beriladi.[5]

Bundan tashqari, M.B.Nizomova va G‘.M.Safarov ilmiy terminologiya bo‘yicha olib borgan struktur-semantik tadqiqotlarida ta’limga oid terminlarning (*ta’lim*, *tarbiya*, *bilim*) ko‘p qatlamli semantik tuzilishini ochib berganlan. Ularning ishlarida terminlarning ichki semantik komponentlari, ilmiy va sohaviy xususiyatlari ajratilib, terminologik tizimlash tamoyillari bayon etilgan. Bu yondashuv ta’lim terminlarini umumiy ilmiy leksika tarkibida izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotimizda M.Pimenovaning konseptologik yondashuvi alohida metodologik asos sifatida qo‘lladik. Uning fikricha, konseptning nominativ maydonini tahlil qilish orqali ma’lum bir tushuncha (masalan, “ta’lim”)ning tildagi barcha ifodalar tizimini aniqlash mumkin. Bunda “ta’lim”, “tarbiya”, “bilim”, “ustoz”, “pedagog”, “talaba” kabi so‘zlar konsept yadrosini, “maktab”, “dars”, “malaka”, “mutaxassislik” kabi birliklar esa periferiyasini tashkil etadi.

Umuman olganda, mazkur olimlar va tadqiqotlar o‘zbek tilidagi ta’lim tizimi birliklarini struktur-morfologik, leksik-semantik va funksional jihatdan kompleks o‘rganish imkonini yaratib, ushbu terminlarning ilmiy muomaladagi barqarorligi va tizimliligini asoslab beradi.

XULOSA

O‘zbek tilida ta’lim sohasiga oid birliklarning shakllanishi asrlar davomida xalqning ilm va odob haqidagi qarashlari, diniy manbalar va madaniy an’analar ta’siri ostida yuzaga kelgan. Mustaqillik davridan so‘ng esa bu terminlar yangi mazmun va ijtimoiy funksiyalar bilan boyidi, “uzluksiz ta’lim”, “ta’lim-tarbiya jarayoni”, “ta’lim muvaffaqiyat kaliti” kabi yangi konseptlar paydo bo‘ldi. Shu jarayonda xorijiy, xususan, nemis tili tajribasini o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, o‘zbek tilidagi ta’lim terminologiyasining shakllanish qonuniyatlarini yanada chuqur anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Mamtaliyeva F.O. Jadid adabiyotida o‘qituvchi obrazi // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 2021. 1 (2). – B.28-34. https://doi.org/10.5281/zenodo.5572564 (murojaat sanasi: 21.05.2025)

[2] Ҳожиев А. Ўзбек тили терминологияси масалалари. – Тошкент, 2001. – Б.11.

[3] Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.36.

[4] Ubaydullayeva Z.D. O‘zbek tilida ta’lim sohasiga doir terminologik birliklarning semantik munosabatlari // Ilmiy xabarlar. – Qo‘qon, 2022. https://ilmiyxabarlar.kspi.uz/index.php/journal/article/view/645 (murojaat sanasi: 14.12.2024)

[5] Nizomova M.B., Erkinova S.M. Comparative analysis of educational terminology in English and Uzbek languages: structural, semantic and functional aspects // European International Journal of Philological Sciences. – 2025.https://inlibrary.uz/index.php/eijps/article/view/81856 (murojaat sanasi: 14.12.2025)